5.3. ta'mirlash muddati 10 kunga kechiktirilsa, shartnoma baxosidan 0,5 % mikdorida penya to'laydi; lekin umumiy so'mmaning 50 % mikdoridan oshmasligi shart; Jarima sanksiyasi buyurtmachi tomonidan bildirilgan yozma ravishdagi da'vodan keyin 10 kun muddat mobaynida to'lanishi shart.

5.4. Shartnoma so'mmasi vaqtida to'lab berilmasa ,shartnoma baxosidan 0,4 % mikdorida buyurtmachi penya to'laydi lekin umumiy so'mmaning 50 % mikdoridan oshmasligi shart

5.5. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida 2-nusxada dalolatnomani tuzadi..

## 5.2 BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

Shartnomada kursatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, «Buyurtmachi» maxsus xisob-raqamidan xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning to'langan narxini 0,04 % mikdorida «Pudratchiga» jarima to'laydi.

«Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida, belgilangan standartlarda va amaldagi konunchilikka asosan qabul qilib oladi.

"Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq budjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofik 2-nusxada dalolatnomani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzadi.

## 5.3 TOMONLAR O`RTASIDA SHARTNOMAVIY NIZOLARNI XAL ETISH

Ushbu shartnoma asosida kelib chiqadigan xar qanday nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliklari talablariga asosan iqtisodiy sudlarida xal etiladi.

## 5.6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

2006 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan Uzbekiston Respublikasi "Davlat budjetining G'azna ijrosi to'g'risida"gi qonunning 7-moddasi xamda O'zR Moliya Vazirligiining 2009 yil 4 avgustdagi 69-son buyrugi bilan tasdiqlangan "Moliya organlarida budjetdan mablag' oluvchilar bilan tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning xarajatlari to'lovini nazorat qilish tartibi xaqida" nizom (2007-son bilan Adliya Vazirligidan ro'yxatidan o'tkazilgan)ga asosan shartnoma tegishli tartibda gaznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va "31"12 2022 yilgacha amalda buladi.

## 6. BOSHQA XOLATLAR.

6.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlari yuzasidan o'zaro xamkorlik qilib turadilar.

## 7. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZIT LARI

| «PUDRATCHI» | «BUYURTMACHI» |
|---|---|
| MCHJ BREND CTROY TA`MIRLASH<br><br>Manzil: Qarshi shahar A. Navoiy Tashloy 13<br><br>Tel: 90-427-00-37<br><br>Faks: 90-427-00-37<br><br>X/R:20208000805419563001<br><br>INN: 308726291 MFO 01099<br><br>Bank: Asia Allance<br><br>Raxbar: ____________ X. Maxmudov | Qarshi shaxar tibbiyot birlshamasi (markazlashgan)<br>Manzil: Qarshi shahar Islom Karimov kuchasi 244-uy<br>Tel.: 75-225-12-17<br>Faks: 75-225-12-17____________<br>INN: 201885333 OKED:86100<br>X/R: 100022860104017073101054016<br><br>Bank: Markaziy<br><br>Raxbar: ____________ M. Baxramova |

# PUDR AT SHARTNOMASI № 1

07.03 2022 yil Qarshi shahar

«MCHJ BREND CTROY TA`MIRLASH » keyingi urinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi. O'zining ustavi(nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida boshlig'i Maxmudov X. nomidan, bir tomondan va Qarshi shaxar tibbiyot birlashmasi, keyingi o;rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Ustavi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi M.M Baxramova nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar xaqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma buyicha "Pudratchi" Qarshi shaxar tibbiyot birlashmasining buyurtmasiga va tuzilgan loyixa smeta xujjatlariga asosan ta'mirlash ( joriy kapital ) ishlarini bajarishni, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni xamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar.
1.2. Ushbu shartnomaning umumiy summasi 603 000 000 (olti yuz uch million ) ni tashkil etadi.

## 2. SHARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR

2.1. «Buyurtmachi» tomonidan taqdim qilingan xujjatlarga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati 603000000 so`mni tashkil qiladi.
2.2 Loyixa smeta xujjatlariga asosan ta'mirlash ishlarining boshlanishi 07.03.2022 yil.
Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti 07.05.2022 yil.

## 3.TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.2.bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.
3.2. Shartnomadagi 4.1 bandida ko'rsatilgan avansni «Pudratchi» olgandan so'ng ta'mirlash ishlarini boshlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 12 maydagi 1154-sonli farmoniga asosan barcha mulkchilik shakllaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iste'molchilar va buyurtmachilarga, agar ular yetkazib beriladigan (bajariladigan ishlar, xizmatlar) qiymatining kamida 15 foizini oldindan to'lamasalar, mahsulot jo'natishi, ishlarni bajarishi va xizmatlar ko'rsatilishi taqiqlangan. "Pudratchi" mazkur farmonga amal qilishi shart.
3.3. «Buyurtmachi» tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi» ga uzi tomonidan xarid qilingan ta'mirlash materiallarini taqdim qilishi mumkin.
3.4. Ta'mirlashni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan xar qanday kamomad yoki javobgarlikni uz zimmasiga oladi.
3.5. Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb xisoblanadi.

## 4. TO`LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1. Ushbu shartnomaning umumiy narxi so'mni tashkil etadi. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi» ga shartnoma narxining 15 % yoki 90450000 (to'qson million to'rt yuz ellik ming)so'm mikdorda oldindan to'laydi va bu oldindan to'lov mart oyida amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» tomonidan yakuniy to'lov «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi xujjat taqdim qilgandan so'ng amalga oshiriladi. Yakuniy to'lovning miqdori so'mni, ya'ni kelishilgan summaning 85% foizini tashkil etadi va bu yakuniy to'lov 31.05.2022 yil amalga oshiriladi.
4.2. «Buyurtmachi» tulovni pul utkazish yo'li bilan amalga oshiradi.
4.3. «Pudrat» tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan so'mmadan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

## 5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

5.1. Shartnoma baxosi 603000000 so'm bo'lgan ta'mirlash ishlari yukorida kelishilgan muddatda tugatish va foydalanishga topshirish. Maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qiladi.
5.2. Xar xaftaning dushanba kunida joriy xaftada bajarilgan ta'mirlash montaj ishlari tugrisidagi tegishli xujjatlarni «Buyurtmachi»ga takdim kilishi shart. Agar ta'mirlash mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u xolda buyurtmachigaquyidagi tartibda jarima to'laydi:

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: UC2284375082

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

**1. Loyihaning turi:**

Fuqarolik shartnoma. “Pudrat shartnomasi”

**2. Loyihaning nomi:**

“Qarshi shahar tibbiyot birlashmasi(buyurtmachi) và “Brend Ctroy ta’mirlash”(pudratchi) o‘rtasida Qarshi shahar tibbiyot birlashmasining 6-oilaviy poliklinikasini joriy ta’mirlash to’g’risidagi shartnoma” .

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Qarshi shahar tibbiyot birlashmasi boshlig’i M.M.Bahromova, 2022-yil 03-mart.

Loyiha amaldagi O‘zbekiston Respublikasining 21.12.1995-yildagi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yil “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” 670-I-sonli qonuniga mos ravishda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qarshi shahar yuridik xizmat**
**ko‘rsatish markazi**
**bosh yuriskonsulti** **S.Muqumov**

2022-yil 07-mart